

**O`ZBEK NOMSHUNOSLIGI VA TARIXIY ANTROPONIMIYA
MUAMMOLARI***Oripov O`ralboy Axmedovich**NDPI, O`zbek tilshunosligi kafedrasi katta o`qituvchisi, f.f.n.**Normammedova Mohinur Xayrulla qizi**NDPI, Xorijiy til va adabiyot (Ingliz tili) fakulteti 1-kurs magistranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o`zbek nomshunosligi va tarixiy antroponimiya muammolari haqida so`z yuritilgan. O`zbek nomshunosligi oldida turgan va ilmiy yechimini kutayotgan bu muammolarni hal etish nomshunos olimlarning navbatdagi muhim vazifalaridir.

Kalit so`zlar: o`zbek nomshunosligi, antroponimiya, tilshunoslik, o`zbek tili, onomastika.

Abstract. This article discusses the problems of Uzbek nomenclature and historical anthroponymy. Solving these problems facing Uzbek nomenclature and waiting for a scientific solution is the next important task of onomologists.

Key words: Uzbek nomenclature, anthroponymy, linguistics, Uzbek language, onomastics.

Абстракт. В данной статье рассматриваются проблемы узбекской номенклатуры и исторической антропонимии. Решение этих проблем, стоящих перед узбекской номенологией и ожидающих научного решения, является следующей важной задачей ономологов.

Ключевые слова: узбекская номенклатура, антропонимия, языкознание, узбекский язык, ономастика.

So`nggi yillarda o`zbek tilshunosligida mustaqil ilmiy sohalar paydo bo`ldi. Ana shunday sohalardan biri o`zbek nomshunosligi (O`zbek onomastikasi) dir. O`zbek tilidagi atoqli otlar tizimini zamonaviy tilshunoslik usullarida tadqiq qilish 1960-yillardan keyingi davrda kuchaydi. Bunda asosan, hozirgi o`zbek tilining mahalliy laxja va shevalaridagi joy nomlari, ya`ni shu bugungi hayotda mavjud bo`lgan nomlarning materiallari to`plandi va monografik tarzda tadqiq qilindi. Joy nomlarining lisoniy, tarixiy-vazifaviy xususiyatlari, ba`zi nomlarning ma`no va etimologiyasiga doir anchagina maqolalar ham yozildi. O`zbek nomshunosligining E. Begmatov, Do`simov, T. Nafasov, S. Korayev, Y.O.Xo`jamberdiyev, N.Oxunov, L.Karimova, T.Rahmatov, K.Xurramov, F.Sattorov, X. Xolmuminov - singari yetakchi mutaxassisleri ham yetishib chiqdi. Ayni vaqtda, bizning nazarimizda O`zbek nomshunosligi bo`yicha olib borilayotgan ishlarni yetarli va qoniqarli deb bo`lmaydi. Bu quyidagilarda ko`rinadi:

Birinchi, o`zbek tili atoqli otlarga boy bo`lib, ularning barcha ko`rinishlari bir xilda to`plangan, o`rganilgan emas. CHunonchi, hayvonlar va boshqa xil jonivorlarning maxsus atoqli otlari - zoonimlar; samoviy jismlar hodisalarning (yulduzlar, sayxralar va va b.) nomlar: astronimlar; inson yaratgan qimmatbaho buyumlar, qurol-yaroq, musiqa asboblarning maxsus nomlari - xrematonimlar;

idoralar, tashkilotlar, muassasalar, qishloq xo'jalik artellari, sanoat korxonalarining nomlari; o'simliklar, daraxtlar, ularning mevalari nomlari - fitonimlar; urug` va qabila nomlari - etnonimlar; nomshunoslikda teonimlar deb yuritiluvchi diniy nomlar; afsonaviy shaxslar-mifonimlar; tarixiy yoki xayoliy voqea va xodisalarning maxsus atoqli otlari - xrononimlar; adabiyot va san`at asarlarining nomi - ktematonimlar va shunga o'xshash kushina nomlar o'z tadqiqotchilarini kutmoqda.

O'zbek tilidagi atoqli otlarning mavjud tiplari, ularning hajmi va chegarasi xozirga qadar belgilangan emas, xolbuki boshqa tillarda bu masalalarda bir qator ishlar qilindi.

Ikkinchidan, o'zbek tilidagi tarixiy nomlarning materiallari shu kunga qadar deyarli tadqiq qilingan emas. Bu fikr o'zbek tilidagi tarixiy joy nomlariga, antroponimlar va nomlarning boshqa xil tiplariga to'ligicha tegishlidir. Natijada, o'zbek tili tarixida mavjud bo'lgan va ko'plab tarixiy yozma yodgorliklar va tarixiy asarlar tilida saqlanib turgan son-sanoqsiz atoqli otlar, ularning paydo bo'lishi, yasalishi va shakllanishi, ma'no va uslubiy-vazifaviy xususiyatlari nazardan chetda qolmoqda.

Uchinchidan, hozirgi o'zbek tilidagi atoqli otlarning juda boy va qimmatli materiallari barcha mintaqalar, hududlar bo'yicha yetarli ravishda to'plangan deb bo'lmaydi. Nomlarni to'plash va ma'lum ilmiy tizim (sistema) ga solishning yagona, asosli usullari ishlab chiqilganicha yo'q. Buning ustiga to'plangan materiallar aksariyat holda har bir muallifning o'z shaxsiy mulki bo'lib qolmoqda, tadqiqotchilar ularni to'ligicha e'lon qilishmayotir. Natijada o'zbek tilidagi joy nomlari materiallarini uzida mujassam qiluvchi yoki kishi yagona, ismlarining markazlashtirilgan kartotekasini tuzishdek muhim ishni amalga oshirish qiyinlashmoqda.

To'rtinchidan, o'zbek tilshunosligida nomshunoslikka oid lug'atchilikning (onomastik leksikografiya) ilmiy prinsiplari ishlab chiqilgan emas. SHu sababli nomlarga oid lug'atlarni, izohli va boshqa xil lug'atlarni har bir muallif o'zicha tuzayotgani, materiallarni o'zi bilganicha izohlayotgani sir emas. O'zbek nomshunosligida atoqli otlarning ma'nosiga oid muammolar ayniqsa, atoqli ot bilan unga asos bo'lgan turdosh (appelyativ) ning ma'nosini farqlash, chegaralash masalalari tadqiq qilingan emas. Natijada atoli otlarning ma'nosini nomlarning izohli, ensiklopedik, tarixiy etimologik, ilmiy ommabop lug'atlari doirasida izohlashning imkoniyatlari va usullari xal qilinmasdan qolmoqda.

Beshinchidan, o'zbek nomshunosligida shu kunga qadar yozilgan ishlarning deyarli barchasida nomlarning ma'no va grammatik xususiyatlari tahlil qilinadi, lekin bu kuzatishlar atoqli otlarning amaliy muammolari bilan bog'lanmaydi. Bu o'rinda toponimlar, antroponimlar va boshqa tip nomlarning imlosi, ularni boshqa tillarga transkripsiya yoki transliteratsiya qilish masalalarini ko'zda tutmoqdamiz. Bu borada o'zbekcha ism familiyalarning imlosi yuzasidan ba'zi ishlar qilingani ma'lum. Lekin ushbu ilmiy-amaliy muammolar xali yanada chuqurroq taxlillarga muxtojdir. Ayniqsa, o'zbekcha ism va familiyalarning o'zga tillarda yozilishi,

aksincha, o'zga tillardan o'zbek matnlariga kirib keluvchi xorijiy nomlarning o'zbekcha imlosi kabi masalalar qo'l urilmagan ko'rikdir. Bu masalaning murakkab tarkibiy qismlaridan birini o'zbek tilidagi tarixiy nomlarning hozirgi o'zbek tili matnlarida yozilishi tashkil kiladi. Qayd qilingan masalalar bo'yicha o'zbek tilshunosligida hali hech narsa qilinganicha yo'q.

Nomshunoslikning amaliy muammolari xaqida gap ketar ekan, o'zbek toponimlari imlosi mutlaqo tadqiq qilinmaganini alohida qayd etishga to'g'ri keladi. Natijada joy nomlarining imlosida boshboshdoqlik, har kim o'z bilganicha ish ko'rish va yozishdek xol xukm surmoqda. Bu nuqsonni o'zbek toponimlarining imloviy xususiyatlarini tadqiq qilish, joy nomlarini to'g'ri yozishning ilmiy prinsiplarini, imloviy qoidalarini ishlab chiqish va o'sha asosda "O'zbekiston toponimlarining imlo lug'ati"ni yaratish orqali bartaraf etish mumkin. Aytilgan imloviy muammolarni hal qilish oson ish emas, chunki joy nomlari o'z tabiati, yashash xususiyati, vazifaviy o'rniga ko'ra aslida mintaqaviy til, ya'ni maxalliy laxja va shevalarning maxsulidir. SHu sababli nomlarni yagona yozilish shakliga solish, o'zbek adabiy tili imlosining talab va qoidalariga moslash tadqiqotchidan ko'pgina konkret muammolarni to'g'ri, xolisona xal qilishni talab qiladi. SHu sababli bo'lsa kerak, nomshunoslar shu kunga qadar bu masalaga qo'l urishga jur'at qilishmayotir.

Oltinchidan, o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi, O'zbekiston Respublikasining mustaqilikka erishishi munosabati bilan nomlarga milliy ruh berishga intilish harakati avj olib ketdi. Natijada sovet davrida o'zgartirilgan milliy-mahalliy nomlarni qayta tiklash, zamirida mafkura yotgan, partiya siyosati tufayli majburlab singdirilgan soxta nomlardan voz kechish, va aksincha, o'zbek xalki, o'lkamiz uchun tarixiy - madaniy ahamiyatga molik bo'lgan nomlarni asrash, unutilganlarini esa qayta tiklash ishi shu kunning dolzarb vazifasiga aylandi. O'zbek nomshunosligi shu kunga kadar erishgan yutuqlar va ilmiy imkoniyatlar qayd qilingan muammolarni to'la hal etishga javob bera olmasligi ma'lum bo'lib koldi. Buning sababi, o'zbek nomshunosligida shu kunga qadar nomlarni o'tmishning tarixiy-madaniy yodgorligi deb bilish va ularni e'zozlash va asrash, nomlarda milliy ruxni saqlash, yangi paydo bo'lgan nomlarni ilmiy - tankidiy baholash singari tushunchalarga e'tibor berilmaganidir. Qayd qilingan murakkab muammolar joylarga nom berish, joy nomlarini o'zgartirish, qayta nomlash, qo'yilayotgan nomni tarixiy, milliy madaniy, lisoniy jihatdan baholashning ilmiy - prinsiplarini, mezonlarini ishlab chiqishni talab qiladi. Bu masalalar o'zbek tilshunosligida mutlaqo o'rganilganilmaganligi uchun joylarga nom berish va ularni o'zgartirish, qayta nomlash, toponimlar imlosi singari masalalar yetarli ilmiy-amaliy asoslarsiz amalga oshirilmogda. Demak, O'zbek nomshunosligining dolzarb ilmiy-amaliy vazifalaridan biri nom qo'yish, nomlarni o'zgartirish yoki qayta nomlashning ilmiy prinsiplarini ishlab chiqish, tarixiy nomlarni tarix va madaniyat yodgorligi deb bilishning o'lchov va mezonlarini belgilashdan, nomlarni davlat tilida yozishning imloviy asoslarini ishlab chiqishdan iboratdir. Yettinchidan, o'zbek tilidagi atoqli otlar sistemasining

nazariy jihatdan yetarli ravishda tadqiq etilmagani, tavsiflanmagani o'zbek nomshunosligi va uning barcha sohalari, tarmoqlari bo'yicha normativ darsliklar, o'quv qo'llanmalari yaratishga imkon bermayapti. Ba'zi qo'llanmalar va dasturlar o'zbek toponimiyasi bo'yicha endigina paydo bo'la boshladi.

O'zbek nomshunosligi bo'yicha yetarli dasturlar, darslik va qo'llanmalarning yo'qligi bu sohani tilshunoslikning boshqa qismlari kabi oliy maktablarda sistemali ravishda o'qitish va o'rgatishga imkon bermayapti. Bu xol kishilarda tilimizning muhim lug'aviy boyligi bo'lgan nomlarga to'g'ri munosabatlarda bo'lish madaniyatini tarbiyalashdek muhim ishni oshirishga xalaqit bermoqda. Holbuki nomlarni avaylash, asrash umumxalq ishidir. Nomlarga g'amxo'rlik qilish, ularni muhofazaga olish esa xalqning qadimiy lisoniy, madaniy-ma'naviy tadbirlarini, o'zbek tilining ko'xna o'tmishi va hozirini to'g'ri anglash hamda ximoya qilishdir.

O'zbek nomshunosligi oldida turgan va ilmiy yechimini kutayotgan bu muammolarni hal etish nomshunos olimlarning navbatdagi muhim vazifalaridir.

O'zbek ismlariga oid dastlabki kuzatishlar XIX asrning oxirlaridan boshlandi. XX asr boshlarida rus tarixchilari tomonidan yaratilgan ba'zi etnografik ishlarda o'zbek ismlari yuzaki va yo'l-yo'lakay aks ettirildi

1907-yilda Toshkentda chop etilgan "Ot ko'ymoq kitobi" dastlabki jiddiy asar bo'ldi. Asarning muallifi Husayn ibn San'atullox bo'lib, kitob 32 sahifadan iborat. Kitobda 623 ta ism berilgan va ulardan 523 tasi o'g'il bolalarning, 100 tasi qizlarnikidir. Asarda o'g'il bolalar va qizlar ismi alohida-aloxida berilgan. Umuman, "Ot qo'ymoq kitobi"dagi ismlarning deyarli xammasi xozirgi tilimizda faol qo'llanilayotgani uning amaliy ahamiyati katta bo'lganini ko'rsatadi. N.G.Malitskiyning "Toshkent mahalliy aholisining nomlash sistemasi" maqolasida o'zbek ismlariga xos xususiyatlar ma'lum darajada ochib berilsa-da, boshqa millat vakillariga mo'ljallangani uchun u sodda va qisqa edi. 1930-1940 yillar orasida lotin yozuvida o'zbek antroponimlarini to'g'ri yozishga bag'ishlangan ba'zi ishlar e'lon qilindi Umuman, kishi nomlari xaqidagi ba'zi epizodik maqola va fikrlarni e'tiborga olmaganda 1960-yillargacha o'zbek antroponimlari olimlar nazaridan chetda qoldi.

1960-1970-yillar orasida onomastik tadqiqotlar keskin ko'paydi va tabiiyki antroponimlar bo'yicha ham muxim va jiddiy ishlar yuzaga keldi.

SHu kunga qadar o'zbek antroponimlari bo'yicha qilingan ishlarni mavzusi va muammolariga ko'ra quyidagicha guruxlarga ajratish mumkin.

Antroponimlarning umumnazariy masalari. Hozirgi o'zbek tilidagi antroponimlarni nazariy masalalari 1960-yildan boshlab o'rganila boshlandi. Tilshunos E.Begmatovning "O'zbek tilining antroponimikasi" tadqiqot va "Nomlar va odamlar" nomli risolasida hozirgi o'zbek antroponimlarning leksik-semantik va morfologik xususiyatlari zaruriy faktlar asosida nazariy asoslab berildi. Keyinchalik olimning bir qator maqolalarida bu mavzu davom ettirildi. O'zbek antroponimiyasi bo'yicha F.Sattorov ham tadqiqot olib bordi. "O'zbek ismlarining turkiy katlami",- deb nomlangan bu tadqiqotda Jizzax viloyatida yashovchi aholining ism va nasablari asosiy manba sifatida o'rganilgan. Turkiy qatlamni

aniqlash maqsadida ishda eski o'zbek yodnomalariga, tarixiy etnografik va badiiy asarlarga murojaat qilingan. O'zbek antroponimlarining ba'zi nazariy masalalari turli ilmiy maqolalarda ochib berishga xarakat kilingan.

Antroponimlar imlosi. Ismlarni to'g'ri yozish masalasi o'ta muhim bo'lgani uchun bu mavzu 50 yillarning oxiridan boshlab tilshunoslar diqqat e'tiborida bo'lib keldi. Ba'zi maqolalarda tarixiy ismlar imlosi xaqida fikr bildirilsa, boshqalarida hozirgi tildagi ism va familiyalar imlosi ko'rsatib o'tildi. O'zbek mumtoz adabiyotining va tilining taniqli namoyandalari Navoiy va O'toiy taxalluslarini to'g'ri yozishga bag'ishlangan munozaralar shu kunga qadar davom etmoqda. Tilshunos olim SH.SHukurovning "Taxallus va imlo" deb nomlangan maqolasi yuqoridagi munozaralarga javob tariqasida yozilgan bo'lib, muallif konkret misollar va rad etib, tariqasida yozilgan bo'lib, muallif konkret misollar bo'lmaydigan faktlarda o'z fikrini asoslaydi: "Atoqli ot turlaridan birini tashkil etuvchi taxalluslar imlosi har bir ilmning muayyan davridagi yozuvining qonun-qoidalariga muvofiklangan bo'ladi. O'zbek tilidagi taxalluslar ham hozir shu tilning imlo qoidalariga mos ravishda yoziladi". Olimning bu fikri bevosita ismlarga ham taaluqlidir. Hozirgi o'zbek ism va familiyalarini yozishda ko'plab imloviy xatolarga yo'l qo'yilmoqda. SHu xatolarni bartaraf etish maqsadida bir qator maqolalar e'lon qilindi. Nomshunos E.Begmatovning O'zbek antroponimlari imlosiga bag'ishlangan lug'atlari muhim amaliy ahamiyatga ega bo'ldi. Davlat tili xaqidagi qonunning 25-moddasida "Ismlar, ota ismi va familiyalarning yagona to'g'ri shakli maxsus ma'lumotnomalarda qayd etiladi. Ismlar, ota ismi va familiyalarni yozishda o'zbek tilining ifoda va talaffuz qonuniyatlariga rioya etiladi" deyiladi. Professor Begmatovning "Ism chiroyi" deb nomlangan risolasi qonunga javob tariqasida yozilgan asardir. Risola ZAGS xodimlariga, pasport bo'limi xizmatchilariga, bolalariga ism qo'yish niyatida bo'lgan ota-onalarga va keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan. Risolada o'zbeklarning bolaga ism qo'yish odatlari, diniy ma'noli ismlar, ismlarni e'zozlash va asrash yo'llari kabi bir qancha masalalar taxlil etilgan. Risolaning 89-151 betlarida erkak va qizlar ismlari lug'ati berilgani uning amaliy qiymatini yanada oshirgan. Ammo risolada o'zbek ismlar imlosining nazariy masalalariga kam o'rin ajratilgan. Bizningcha, o'zbek antroponimlari imlosi bo'yicha qilinadigan keyingi ishlarda bu masalaga e'tiborni kuchaytirish lozim.

Badiiy asarlar va folklor antroponimiyasi. Badiiy adabiyotdagi antroponimlarni tadqiq qilishga bag'ishlangan ishlarni shartli ravishda quyidagi guruxlarga ajratish mumkin:

a) Ma'lum shoir yoki yozuvchining asaridagi antroponimlarning leksik semantik tasnifi: G.F.Blagovaning "Boburnoma"dagi ayollar ismiga, B.Bafoyevning "Navoiy asarlaridagi kishi ismlari"ga, K.Karimovning "Qutadgu bilig"da uchraydigan shaxs nomlari" va boshqalar.

v) Antroponimlarning uslubiy-vazifaviy xususiyatlariga bag'ishlangan: E.Begmatovning "Go'zallarning go'zali" , N.Xusanovning Farhod, Badiuzzamon ismlariga", SH.Yokubovning Farhod ismiga E.Kilichevning Ayniy asarlaridagi

antroponimlarning stilistik xususiyatlariga oid maqolalarda ismlarning badiiy adabiyotdagi o'rnini va roli ochib berilgan. Folklor asarlaridagi antroponimlarning xususiyatlari deyarli o'rganilmagan, bu yo'nalishda qilinadigan ishlar nomshunoslar oldidagi muhim vazifalardan biridir.

v) Antroponimlar tarjimasida ham bir qator ilmiy ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa tarjimashunos olim Y.Pulatovning "Badiiy asarlarda nomlar tarjimasida risolasi" da va boshqa maqolalarda antroponimlarning semantik va stilistik xususiyatlarining tarjimada va nechog'lik ahamiyati katta ekanligi ochib berilgan.

Antroponimik lug'atlar. O'zbek tilida antroponimlarning izohli lug'ati bo'yicha juda kam ish qilingan. Kollektiv avtorlar tomonidan chiqarilgan "Ismingizning ma'nosi nima" chiqqaniga 25 yildan oshdi. Qolaversa, lug'atdagi ismlarning izohida bir qator xato va kamchiliklar mavjud bo'lib, u shaklan va mazmunan bugungi kunning talabiga javob bera olmaydi. T.Korayev va R.Vohidovlarning "Adabiy taxalluslar haqida" risolasining 24-58 sahifalarida o'zbek mumtoz adabiyoti vakillarining taxalluslari haqida umumiy ma'lumotlar berilgan va taxalluslarning ma'nosi izohlangan. Asarda 88ta taxallusga to'g'ri va aniq izoh berilgani uchun u o'ziga xos ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Alisher Navoiy asarlaridagi 1076 ta antroponim ushbu satrlari muallifi (hamkor B.Bafoyev) tomonidan "Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati"da berildi. Tuzuvchilar lug'at hajmidan va imkoniyatdan kelib chiqib ism egasi xaqidagina izoh berish bilan cheklanishgan.

Bizningcha, kelajakda tuziladigan antroponimik lug'atlarda so'zning ma'nosi va etimologiyasini ochib berish asosiy mezon bo'lmog'i lozim.

S.Rizayev va A.Mirzayevlarning "Yaxshi ism - insonga xusn"nomli lug'atida hozirgi O'zbek tilida faol ishlatuvchi 1,5 mingta yaqin ismlarning ingliz, ispan va eski o'zbek yozuvida berilishi ko'rsatilgan. Tuzuvchilar "ko'pdan ko'p ismlar ichidan saralab olingan ismlarning lug'atida hozirgi O'zbek tilida faol ishlatuvchi 1,5 mingga yaqin ismlarning ingliz, ispan va eski o'zbek yozuvida berilishi ko'rsatilgan. Tuzuvchilar "ko'pdan ko'p ismlar ichidan saralab olingan ismlarning to'rt xil yozuvda berilishi, albatta, bir tomondan, savodxonligimizni oshirishga yordam bersa, ikkinchi tomondan, baynalmillik maqsadlarini amalga oshirishda ahamiyat kasb etadi deb xisoblashadi.

Antroponimlar tarixi. O'zbek antroponimlarini tarixan o'rganish yaqindagina boshlandi. E.Begmatovning "O'zbek antroponimiyasidagi qadimiy turkiy elementlar" maqolasidan so'ng ushbu satrlar muallifining qadimiy turkiy yodnomalardagi antroponimlarga bag'ishlangan maqolalari navoiyshunos olimlar Alibek Rustam va Baxrom Bafoyevlar ham o'z ishlarida ba'zi ismlarning ma'no xususiyatlariga to'xtalib o'tganlar. SH.Yokubovning "Navoiy asarlari onomastikasi" nomli tadqiqotida ham bir qator ismlar tarixan taxlil qilingan.

Antroponimlar tarixini o'rganish bilan bog'liq masalalardan biri "tarixiy antroponimlar" tushunchasini konkretlashtirish va tarixiy nomlar majmuini zamonaviy ismlar fondidan farqlash, chegaralash masalasidir. Chunki ushbu

tadqiqotda "tarixiy antroponimlar" deb nomlangan nomlarning ma'lum bir qismi hozirgi o'zbek antroponimlari fondida iste'molda mavjuddir. Bunday nomlar tilda paydo bo'lish davri va yashash xolatiga ko'ra tarixiy bo'lsa-da, qo'llanilishi, hayotiylikiga ko'ra zamonaviy hamdir. Demak, bunday nomlar ham tarixiylik, ham zamonaviylik xususiyatiga ega. Hozirgi o'zbek tilidagi Ulug'bek, Tangriberdi. O'lmas, Temur ismlari qadimiy va tarixiy, shuningdek, zamonaviy hamdir. Tarixiy antroponimlar ma'lum tarixiy yozma manbalarda yoki folklor tilida uchrashi kabi xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Yodnomalarda qayd etilgan antroponimlarning hozirda ishlatilmasligi ularni unutilgan, ya'ni "o'lik ismlar" qatoriga kiritadi. Bunday ismlar ham tadqiqotda "tarixiy antroponimlar" atamasi bilan yuritiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kurbanova, N. N. (2020). Subordination of land and water relations to the colonial interests of the Fergana region. Экономика и социум, (7), 36-39.
2. Nasridinbekovna, K. N. (2022). THE ROLE OF WOMEN'S PERSONNEL IN THE DEVELOPMENT OF THE NATIONAL ECONOMY OF UZBEKISTAN: SOCIAL AND POLITICAL STATUS (1917-1940). Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 4, 110-117.
3. Kurbanova, N. N. (2022). SUBORDINATION OF LAND AND WATER RELATIONS TO THE COLONIAL INTERESTS OF THE FERGANA REGION. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(1), 170-175.
4. Ibragimovna, R. S., & To'lqinov Ilhomjon Saidjon, O. G. (2022). O'ZBEKISTONDA KUTUBXONACHI KADRLAR TAYYORLASH VA KUTUBXONA XODIMLARI FAOLIYATI (1920-2012). Research Focus, (Special issue 1), 46-51.
5. Ibragimovna, R. S. (2022). Library issues in Uzbekistan: Problems and solutions (1991–2021). Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(5), 249-252.
6. Ibragimovna, R. S. (2020). REFORMS IN THE FIELD OF MEDICINE IN UZBEKISTAN DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE. Medical care, 24(46), 73-7.
7. Рахматуллаева, С. И. (2020). ЎЗБЕКИСТОНДА САЛОМАТЛИК МАСАЛАЛАРИ. In ОБЩЕСТВЕННЫЕ НАУКИ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ: ПОЛИТОЛОГИЯ, СОЦИОЛОГИЯ, ФИЛОСОФИЯ, ИСТОРИЯ (pp. 103-107).
8. Рахматуллаева, С. И. (2017). Андижан в 1917 году. Высшая школа, (6), 75-76.
9. Рахимова, Г. С., Рахматуллаева, С. И., & Расулов, М. А. (2016). ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ ПРИ СОВЕТАХ. Интернаука, (4-1), 12-14.
10. Абдуллаева, Р. М. (2022). Интеграция С Клиническими Дисциплинами В Медицинском Вузе При Обучении Русскому Языку Специальности. Central Asian Journal of Medical and Natural Science, 3(6), 94-97.
11. Абдуллаева, Р. М. (2022). Коммуникационные Технологии Языкового Обучения В Медицинском Вузе. Central Asian Journal of Medical and Natural Science, 3(6), 98-102.
12. Abdullaeva, R., Esanow, F. N. U., & Eshbaeva, N. (2022). Translation as a means of teaching clinical terminology.
13. Абдуллаева, Р. М. (2019). Ситуативный контекст в процессе преподавания русского языка студентам медицинских вузов. In Современная Россия в мировом политическом процессе: глобальное и региональное измерение (pp. 357-363).
14. Абдуллаева, Р. М. (2021). СЕТЕВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ НА ЗАНЯТИЯХ РУССКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНСКОМ ВУЗЕ. Редакционная коллегия.
15. Кулахметова, Ж. Т. (2018). ЗНАЧЕНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ

- ЯЗЫКАМ. НАУКА И ИННОВАЦИИ В XXI ВЕКЕ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ОТКРЫТИЯ, 51.
16. Abdullaeva, R., Mirrahimova, G., Israilova, I., Eshbaev, O., & Aminova, G. (2020). Learning foreign vocabulary using computer programs. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(S1), 567-572.
 17. Mirzatullaevna, A. R., Jabbarovich, E. U., Shuhratovna, M. G., Erikovna, N. F., & Majlimovna, P. M. (2019). Uso de tecnologías multimedia modernas en clases de idiomas extranjeros. *Religación. Revista de Ciencias Sociales y Humanidades*, 4(18), 80-85.
 18. Абдуллаева, Р. М. (2016). СВОЕОБРАЗИЕ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ ВЕЛИКОБРИТАНИИ. *Ученый XXI века*, 9.